



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 20-mart

VII-7-38-11-0-K/25

Farg‘ona viloyati

Viloyat hududlarida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflarini qayta ko‘rib chiqish ba tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 sentyabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4845-son qarorining 4-bandida 2021 yil 1 yanvardan boshlab hududlarda maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari (*xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar tomonidan kelishilgan narxlarda amalga oshiriladigan alohida xizmatlar uchun to‘lovlar bundan mustasno*) dastlab narxlarni (tariflarni) tartibga solish organlari xulosalari olinib, keyinchalik tegishligicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qarorlari bilan ma’qullanganidan so‘ng tasdiqlanishi belgilangan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024 yil 4 yanvardagi PF-5-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “Maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov tariflarini majburiy ko‘rib chiqish sxemasi” ga asosan (3-bosqich doirasida) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish Agentligi tomonidan taqdim qilingan maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov summalarini miqdori to‘g‘risidagi murojaatni belgilangan tartibda ko‘rib chiqib, Agentlik murojaatida belgilangan tariflarni qabul qilish yoki rad qilish masalasi asosliligin ko‘rib chiqishi, shuningdek, Agentlik hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining hududiy bo‘limmalari xulosasi asosida xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga ko‘rib chiqish uchun kiritishi belgilangan.

Shunga ko‘ra, xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2023-yil 25-oktyabrdagi VI-60-104-11-0-K/23 sonli qaroriga muvofiq, chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmati narxlari (tariflari) shahar hududida yashovchi aholiga 1 kishi uchun (QQS siz) 5 000 so‘m, tuman hududida yashovchi aholiga 1 kishi uchun (QQS siz) 4 000 so‘m, yuridik tashkilotlarga (QQS siz) 1 m³ uchun 53 760 so‘m miqdorida belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va byudjet siyosatining 2024 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan

O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasi 16-bandiga muvofiq 2024 yilning 1 apreliдан boshlab Soliq kodeksining 264-moddasining uchinchi qismida belgilangan sanitariya jihatdan tozalash bo‘yicha aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilishga doir aylanmaga nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinishi bekor qilinganligi sababli amalda bo‘lgan mazkur tariflarga tegishli o‘zgartirish kiritilib, Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2024-yil 29-martdagи VI-66-36-11-0-K/24 sonli qaroriga muvofiq, chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmati narxlari (tariflari) shahar hududida yashovchi aholiga 1 kishi uchun (QQSni hisobga olgan holda) 5600 so‘m, tuman hududida yashovchi aholiga 1 kishi uchun (QQSni hisobga olgan holda) 4 480 so‘m, yuridik tashkilotlarga (QQSni hisobga olgan holda) 1 m³ uchun 53 760 so‘m miqdorida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 4 yanvardagi PF-5-sonli Farmoni talablaridan kelib chiqib, Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish Agentligi Farg‘ona viloyat boshqarmasi tomonidan taklif etilgan maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov summalarini miqdorlari viloyat hokimligi ishchi guruhi tomonidan ko‘rib chiqilib, xalq deputatlari viloyat kengashiga ko‘rib chiqish uchun kiritilgan.

Xususan, viloyat hokimligi ishchi guruhi tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari narxlari shaharlar aholisi uchun bir kishiga oyiga 6 696 so‘m (QQS bilan 7 500 so‘m), tumanlar aholisi uchun bir kishiga oyiga 5 804 so‘m (QQS bilan 6 500 so‘m) hamda yuridik shaxslar uchun 1 m³ uchun 100 580 so‘m (QQS bilan 112 650 so‘m) miqdorlarining tasdiqlanishi bo‘yicha taklif berilgan.

Maishiy chiqindilar uchun to‘lov tariflarini keskin oshishining asosiy sabablari sifatida yoqilg‘i-moylash materiallari va ehtiyoj qismlar narxlarining ham 2023-yilga nisbatan oshganligi, chiqindi poligonlari davlat tasarrufiga o‘tkazilishi munosabati bilan poligonlarni ekologik talablarga muvofiqlashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan yangi tariflarni joriy qilinishi (o‘rtacha bir kishiga 950 so‘m) hamda sanitar tozalash korxonalarini investitsiya majburiyatlarini bajarish bilan bogliq xarajatlarini ortishini va xizmat ko‘rsatishni tashkil qilishga bevosita ta’sir qiluvchi ish haqi, yoqilg‘i moylash va ehtiyoj qismlar bilan bog‘liq xarajatlarni ortishi hamda qonunchilikka muvofiq aholi uchun QQS to‘lovlari joriy qilinishi holatlari keltirilgan.

Mazkur taklif etilayotgan narxlar (tariflar) xalq deputatlari viloyat Kengashining “Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, kengash qarori loyixasi tayyorlanib, normativ-huquqiy hujjalarni loyihalari muhokamasi portaliga qo‘yilib, jamoatchilik muhokamasidan o‘tgan.

Viloyatda iqtisodiyot sohalarida va aholi punktlarida hosil bo‘ladigan maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari viloyat kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 sentyabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4845-son qarorining 4-bandida 2021 yil 1 yanvardan boshlab hududlarda maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari (*xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar tomonidan kelishilgan narxlarda amalga oshiriladigan alohida xizmatlar uchun to‘lovlar bundan mustasno*) dastlab narxlarni (tariflarni) tartibga solish organlari xulosalari olinib, keyinchalik tegishligicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qarorlari bilan ma’qullanganidan so‘ng tasdiqlanishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024 yil 4 yanvardagi PF-5-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “Maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov tariflarini majburiy ko‘rib chiqish sxemasi” ga asosan (IV-bosqich doirasida) Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari maishiy chiqindi xizmatlari tariflarini qayta ko‘rib chiqishi va tasdiqlashi belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish Agentligi Farg‘ona viloyat boshqarmasining 2025 yil 4 fevraldaggi 01-01/23-sonli xati hamda bu bo‘yicha viloyat hokimligining xulosasi inobatga olinsin.

3. Mazkur masala xalq deputatlari viloyat Kengashining “Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilganligi va doimiy komissiya majlisida muhokama qilinib, viloyat kengashi sessiyasi kun tartibiga kiritish to‘grisidagi qarori asos uchun qabul qilinsin.

4. Viloyat hududlarida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflarining narxlari (tariflari) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliev), Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish Agentligi Farg‘ona viloyat boshqarmasi (M.Bannapov), O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi xuzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Farg‘ona viloyat boshqarmasi (E.Usmonov), O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish Qo‘mitasi viloyat xududiy boshqarmasi (A.Xolmatov) bilan birgalikda mazkur Kengash qarori bilan ma’qullangan viloyat hududlarida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflarining narxlari (tariflari)ni o‘rnatalgan tartibda qo‘llab borilishi yuzasidan nazorat tadbirlarini olib borsin.

6. Viloyat hokimining qurilish, to‘sqliarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari X.Dolimov viloyatda qattiq maishiy chiqindi bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishga oid mahalliy dasturlar, shuningdek, hududlarni sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqib, bajarilishini ta’minlab borsin.

7. Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish Agentligi Farg‘ona viloyat boshqarmasi (M.Bannapov):

har oyda alohida reja-jadval asosida viloyatdagi sanitar tozalash korxonalari xizmat ko‘rsatuvchi hududlarning geografik chegarasi hamda aholi va yuridik shaxslarga biriktirilgan chiqindilarni yig‘ish maydonchalari (konteyner) joylashuvi va uning sanitar holatini yuzasidan xatlov va monitoring o‘rganishlar olib borish;

xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish jadvaliga rioya qilinishi yuzasidan monitoring (*shu jumladan chiqindi tashish mashinalari harakatini real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan kuzatish tizimi (GPS)dan foydalangan holda*) yuritish hamda hisobini olib borish;

alohida-reja jadval asosida maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning rejimi va sifati bo'yicha hududlarda aholi va tadbirkorlik sub'ektlari vakillari bilan uchrashuvlar (yoki so'rovnomalari) o'tkazgan holda ularning (iste'molchilarining) fikrlarini muntazam o'rganib borish;

fugarolarning hayoti va salomatligi, atrof muhit uchun xavfli bo'lgan bakteriyalarning va boshqa zararli moddalarning rivojlanishiga, chiqindilarning ko'plab to'planib qolishiga qarshi rejali ishlarni olib borish (*konteyner va chiqindi to'plash shoxobchalarini dezinfeksiyalash yoki yuvib turish yo'li bilan va shu kabilar*);

viloyat hududlarida qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketganlik uchun jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan majburiy to'lovlarni to'lash va hisobini yuritish yagona elektron tizimining uzluksiz faoliyatini ta'minlash;

maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish va ularni joylashtirish xizmatlari uchun ishlab chiqilgan tariflarning asoslantirilganligini o'rganib borish;

sanitar tozalash sohasida tizimli muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish;

maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning tartibi va tariflarining o'zgarganligi to'g'risida ushbu tariflar kuchga kirishidan o'n besh kun avval xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning stendida, e'lonlar taxtasida e'lonlar osish yo'li bilan, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali iste'molchini xabardor qilish;

qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish bo'yicha sanitar tozalash korxonalari, tadbirkorlik subektlari faoliyatini monitoring qilib borish, ular faoliyatidagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish hamda ular faoliyatining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini baholab borish choralarini ko'rsin.

8. Viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofazasi va iqlim o'zgarishi boshqarmasi (B.Jumanov) viloyat hududlarida maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha faoliyatning olib borilishi yuzasidan doimiy tarzda ekologik nazorati tadbirlarini amalga oshirib borsin.

9. Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar o'ziga biriktirilgan hududda fugarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan belgilangan tartibda kelishilgan jadvalga muvofiq, qattiq maishiy chiqindilarning muntazam olib chiqib ketilishini qat'iy amalga oshirib borsin.

Bunda, qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketishning minimal davriyligiga qat'iy rioya etiladi.

o'ziga biriktirilgan hududda fugarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan belgilangan tartibda kelishilgan jadvalga muvofiq, qattiq maishiy chiqindilarning muntazam olib chiqib ketilishini amalga oshirish;

10. O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (A.Ziyaviddinov) hududlarda (mahalla fuqarolar yig'inlarida) qattiq maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlar yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirib borsin.

11. O‘zbekiston iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari Federatsiyasi Farg‘ona viloyat hududiy birlashmasi (A.Raxmonaliev) hududlarda maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha ko‘rsatilayotgan xizmatlar doirasida iste’molchilarning huquqlari bajarilishi yuzasidan tegishli ishlarni amalga oshirib borish tavsiya etilsin.

12. Hududlarga biriktirilgan sanitar tozalash korxonalariga “mahalla yettiligi” tavsiyasiga asosan kambag‘al (ya’ni ehtiyojmand) oilalarga o‘z iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ko‘rsatilgan xizmat uchun to‘lovlar yuzasidan imtiyozlar qo‘llash tavsiya etiladi.

13. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (M.Sulaymonov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (M.Mirzaev) bilan birgalikda viloyatdagi davlat va nodavlat teleradiokompaniyalari hamda boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimliklar muassisligidagi gazetalarda, hokimliklarning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun tasdiqlangan majburiy to‘lov narxlari (tariflari) e’lon qilinishini tashkil etsin.

14. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining “Mahalliy budgetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (R.Kamolov) hamda viloyat hokimining qurilish, to‘sqliarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘ribbosari X.Dolimov zimmasiga yuklansin.

15. Ushbu Qaror 2025 yil 1 aprel kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Komilov

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining
 2025-yil 20-martdagи
 VII-7-38-11-0-K/25 -son qaroriga
 1-ilova

**Viloyat hududlarida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun
 taklif etilayotgan majburiy to‘lov narxlari (tariflari)**

T/r	Hudud toifalari	Qattiq maishiy chiqindilar			
		Aholiga (bir kishi uchun) bir oylik uchun QQS siz (so‘m hisobida)	Aholiga (bir kishi uchun) bir oylik uchun QQS bilan (so‘m hisobida)	Yuridik tashkilotlarga 1 m³ uchun QQS siz (so‘m hisobida)	Yuridik tashkilotlarga 1 m³ uchun QQS bilan (so‘m hisobida)
1.	Shaharlar hududi uchun	6 696	7 500	100 580	112 650
2.	Tumanlar hududi uchun	5 804	6 500	100 580	112 650

Izoh: 2024 yilning 1 apreldidan boshlab Soliq kodeksining 264-moddasining uchinchi qismida belgilangan sanitariya jihatdan tozalash bo‘yicha aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilishga doir aylanmaga nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinishi bekor qilingan.